

**O‘zbekiston**  
**Metama’lumot**  
**Yalpi hududiy mahsulot**

Ishlab chiqilgan sana: 25.08.2025

Oxirgi yangilangan sana: 25.08.2025

## 0. Asoslar

### 0.1 Qonuniy asoslar

#### 0.1.1 Statistik ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tarqatish uchun javobgarlik

##### **O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi**

2021-yil 11-avgustda Sharqiy Yevropa, Kavkaz va Markaziy Osiyo uchun Rasmiy statistika to‘g‘risidagi namunaviy qonuni asosida ishlab chiqilgan “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi.

Ushbu Qonunning maqsadi rasmiy statistika sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonunning amal qilishi rasmiy statistikani tayyorlovchilarga va undan foydalanuvchilarga, respondentlarga hamda ma‘muriy ma‘lumotlarni yetkazib beruvchilarga, shuningdek ular o‘rtasida yuzaga keladigan, rasmiy statistikani tayyorlash, tarqatish va muvofiqlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlarga nisbatan tatbiq etiladi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-75-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi to‘g‘risida nizomga muvofiq, Milliy statistika qo‘mitasi rasmiy statistikaning asosiy prinsiplariga rioya etilishini va xalqaro tavsiyalarga muvofiq bo‘lgan statistika uslubiyotlarining bir xilligini ta‘minlash; statistika ma‘lumotlarini yig‘ishni, uy xo‘jaliklarining statistika kuzatuvlarini, ro‘yxatga olishlarni, bir marotabalik hisobga olishlarni, tanlanma so‘rovlarni va boshqa statistika kuzatuvlarini o‘tkazishni tashkil etish; barcha darajadagi foydalanuvchilarni belgilangan tartibda rasmiy statistika ma‘lumotlari bilan ta‘minlash; statistika maqsadlarida foydalanish uchun statistika registrlari va tasniflash tizimini yuritish uchun javobgar hisoblanadi.

Shu bilan birga, Rasmiy statistika to‘g‘risidagi Qonunning 14-moddasiga muvofiq statistika organlari quyidagi huquqlarga ega:

- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlaridan, banklardan hamda boshqa tashkilotlardan statistika kuzatuv shakllarini olish va statistika kuzatuv ma‘lumotlaridan statistika maqsadlarida foydalanish;
- statistik birliklar faoliyatining statistika kuzatuvlarini o‘tkazish va olingan birlamchi ma‘lumotlardan statistika maqsadlarida foydalanish;
- jismoniy shaxs bo‘lgan respondentlarni statistika kuzatuvlarida ishtirok etganligi uchun rag‘batlantirishni amalga oshirish;
- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, shuningdek boshqa tashkilotlardan statistika dasturlarini bajarish uchun zarur bo‘lgan axborotni so‘rash hamda olish;

- rasmiy statistikani tayyorlash uchun zarur bo'lgan statistika ma'lumotlarini yig'ishga jismoniy va yuridik shaxslarni qonunchilikka muvofiq shartnoma asosida jalb etish;
- statistika ma'lumotlarini yig'ish, ularga ishlov berish, ularni umumlashtirish, tahlil qilish, tarqatish va saqlashning zamonaviy usullari va vositalaridan foydalanish hamda ularni milliy statistika tizimiga joriy etish;
- statistika ma'lumotlarini taqdim etish bilan bog'liq qoidabuzarliklar aniqlangan taqdirda, ularni bartaraf etish haqida ko'rsatmalar berish va statistika ma'lumotlariga tegishli tuzatishlar kiritish;
- statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzgan mansabdor shaxslarga nisbatan ma'muriy jazo choralarini qonunga muvofiq o'z vakolatlari doirasida qo'llash.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-sentabrdagi F-5054-son farmoyishiga muvofiq, mamlakatdagi iqtisodiy va moliyaviy ma'lumotlar Xalqaro Valyuta Fondining kengaytirilgan umumiy ma'lumotlar tarqatish tizimi (k-MTUT)ga to'g'ri kelishi va uning doirasida muvofiqlashtirilishi kerak.

Statistika jarayonlarini boshqarish, shu jumladan statistika ma'lumotlarini tayyorlash va tarqatish xalqaro sifatni boshqarish modellari (GSIM, GSBPM, GAMS0)ga asosan ishlab chiqilgan milliy tartib-taomillarga muvofiq amalga oshiriladi.

### **0.1.2 Ma'lumot ishlab chiqaruvchi tashkilotlar o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi va muvofiqlashtirish**

#### **O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi**

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 11-moddasiga asosan rasmiy statistikani tayyorlovchilar statistika ma'lumotlarini ishlab chiqishda xalqaro darajada tavsiya etiladigan tushunchalarga, tasniflarga va uslubiyatga amal qiladi.

Vakolatli davlat organi rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilarining faoliyatini statistika dasturlari doirasida muvofiqlashtiradi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar statistika ma'lumotlarini tayyorlash uslubiyatini o'z vakolatlari doirasida muvofiqlashtiradi.

Rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilarining statistika uslubiyatlarida xalqaro tavsiyalarga nomuvofiqlik aniqlangan taqdirda vakolatli davlat organi statistika uslubiyatlari auditi yakunlariga ko'ra ushbu tayyorlovchilarga ijro etilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritish huquqiga ega.

Milliy statistika tizimiga kiruvchi rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari tomonidan statistika ma'lumotlarini shakllantirish va vakolatli davlat organi bilan axborot almashinuvini ta'minlash uchun mas'ul bo'lgan bo'linmalar tashkil etiladi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar hamda ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilar o'zlarida mavjud bo'lgan statistika ma'lumotlarini va (yoki) ma'muriy ma'lumotlarni vakolatli davlat organiga statistika dasturlarida belgilangan tartibda va muddatlarda bepul taqdim etadi.

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 10-moddasiga asosan, Statistika kengashi vakolatli davlat organi huzuridagi rasmiy statistikaning rivojlantirilishi, faoliyat ko'rsatishi va muvofiqlashtirilishi masalalari bo'yicha kollegial maslahat organidir.

Statistika kengashining tarkibi davlat boshqaruvi organlarining, ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining vakillari, shuningdek statistika bo'yicha milliy ekspertlar orasidan tuziladi.

### 0.1.3 Respondentlar individual ma'lumotlarining maxfiyligi

#### **O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi**

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 27-moddasiga asosan, rasmiy statistikani tayyorlovchilar tasarrufidagi mavjud individual ma'lumotlardan faqat statistika maqsadlarida, jamlanma statistika ma'lumotlarini shakllantirish uchun foydalaniladi.

Davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlar, shu jumladan xalqaro tashkilotlar tomonidan individual ma'lumotlardan tergov, nazorat qilish, sud muhokamasi, ma'muriy qarorlar qabul qilish maqsadida yoki jismoniy va yuridik shaxslarga yoki uy xo'jaliklariga taalluqli boshqa maqsadlarda foydalanilishi mumkin emas.

Milliy statistika qo'mitasi xodimlari axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik prinsiplariga rioya qilishlari, o'zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday individual ma'lumotlarni oshkor qilmasliklari kerak.

Ularni lavozimga tayinlash paytida majburiyatlari haqida ma'lumot beriladi. Milliy statistika qo'mitasining har bir xodimi ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini o'z ichiga olgan shartnomaga qo'l qo'yishi shart.

### 0.1.4 Statistik hisobotlarni taqdim etish

#### **O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi**

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 14-moddasiga asosan, statistika organlari davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan, banklardan hamda boshqa tashkilotlardan statistika kuzatuv shakllarini olish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi [kodeksining](#) 215-moddasiga muvofiq mansabdor shaxslarning statistika kuzatuvini olib borish uchun zarur bo'lgan hisobot va boshqa ma'lumotlarni taqdim etmaslikda ifodalangan statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzishi, hisobot ma'lumotlarini buzib ko'rsatishi yoki hisobotlarni taqdim etish muddatlarini buzishi bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 16-moddasiga asosan, Statistika dasturlariga binoan statistika kuzatuvlarini o'tkazish chog'ida respondentlar rasmiy statistikani tayyorlovchilarga ishonchli va to'liq ma'lumotlarni rasmiy statistikani tayyorlovchi tomonidan belgilangan tartibda va muddatlarda bepul taqdim etishi shart.

## 0.2 Resurslar

### 0.2.1 Kadrlar, moddiy-texnika bazasi, kompyuter vositalari va moliyalashtirish

Makroiqtisodiy indikatorlar va milliy hisoblar boshqarmasining Joriy hisoblar bo'limida 4 nafar xodim ishlaydi.

Yalpi hududiy mahsulotni hisoblash metodologiyasi bo'yicha xodimlarni o'qitish doimiy ravishda olib boriladi. Boshqarma xodimlari quyidagi o'quv kurslarida o'z malakalarini oshiradilar:

- Milliy statistika qo'mitasining Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti tomonidan tashkil etiladigan o'quv kurslarida;

- Xalqaro valyuta jamg'armasining:
- Salohiyatni rivojlantirish instituti (AQSH),
- Birlashgan Vena instituti (Avstriya),
- Kavkaz, Markaziy Osiyo va Mo'g'uliston davlatlari uchun salohiyatni rivojlantirish mintaqaviy markazi (Qozog'iston) bilan hamkorlikda tashkil etilgan o'quv kurslarida;
- Osiyo va Tinch okeani statistika instituti tomonidan tashkil etilgan onlayn kurslarda;
- Xalqaro statistika tashkilotlarining boshqa seminarlarida.

Bo'limda kompyuterlar soni yetarlicha bo'lib, har bir xodim o'zining kompyuterida ishlaydi. Barcha kompyuterlar lokal tarmoqqa ulangan, shuningdek, internetga kirish imkoniga ega.

Moliyaviy mablag'lar Statistika dasturi doirasida taqdim etiladi va Dasturda nazarda tutilgan statistika ishlarini bajarish, shuningdek, yangilangan "Milliy hisoblar tizimi – 2008" qo'llanmasini statistika amaliyotiga joriy etish bo'yicha rejalashtirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun yetarlidir.

## 1. Beg'arazlik

### 1.1 Kasbiy mahorat

#### 1.1.1 Statistikaning xolisligi

##### **O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi**

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunining 6-moddasiga asosan, rasmiy statistikasining asosiy prinsiplari, jumladan beg'arazlik va xolislik hisoblanadi.

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunining 13-moddasiga asosan, Davlat organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari statistika organlarining ushbu Qonunga muvofiq amalga oshirilayotgan faoliyatiga aralashishga haqli emas.

Hududiy statistika boshqarmalari, tumanlarning (shaharlarning) statistika bo'limlari mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqil bo'lib, bevosita vakolatli davlat organiga bo'ysunadi.

Kadrlarni tanlab olish va ularni yuqori lavozimlarga tayinlashda, ularning statistika sohasida tajribasi va kasbiy malakasi e'tiborga olinadi. Boshqarma xodimlari malakasini oshirish O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti tomonidan tashkil etiladigan o'quv kurslarida hamda xalqaro tashkilotlar tomonidan tashkil etiladigan o'quv kurslari, o'quv-amaliy seminarlarda ishtirokini ta'minlash orqali ta'minlanadi. Boshqarma xodimlari Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutida tashkil etilgan o'quv kurslarida ma'ruzalar bilan ishtirok etadi. Ommaviy axborot vositalarida Boshqarma xodimlarining ilmiy maqolalarini e'lon qilib borish tashkil etilgan.

#### 1.1.2 Manbalar, uslublar va tarqatish usullarini tanlash

##### **O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi**

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 33-moddasiga muvofiq:

Rasmiy statistikaning tayyorlovchilar rasmiy statistikaning sifatini doimiy asosda baholab boradi. Sifat kafolatini ta'minlash uchun rasmiy statistika rasmiy statistikaning qamrovi, tushunchalari, statistik birliklari va tasniflariga taalluqli umumiy prinsiplar hamda usullar asosida tayyorlanadi va tarqatiladi.

Rasmiy statistikaning tayyorlovchilar rasmiy statistikaning sifatini yaxshilash maqsadida ma'lumotlarni tahlil etish va tahrir qilish, turli manbalardan olingan ma'lumotlarni birlashtirish, ma'lumotlarni statistika maqsadlarida bir-biriga bog'lashni va solishtirishni amalga oshirish hamda baholashning statistik usullaridan foydalanish huquqiga ega.

Rasmiy statistikaning tayyorlovchilar tayyorlash jarayonida foydalaniladigan manbalar va usullarni, shuningdek yakuniy ma'lumotlar to'plamlarini hujjatlashtirib boradi. Rasmiy statistikadan foydalanuvchilar statistika ma'lumotlarining manbalari va ularni tayyorlash usullari hamda rasmiy statistika ma'lumotlarining sifati to'g'risida metama'lumotlar yordamida xabardor qilinadi.

### **1.1.3 Statistik ma'lumotlarni noto'g'ri talqin qilish yoki undan noto'g'ri foydalanish bo'yicha sharh**

#### **O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi**

Milliy statistika qo'mitasi statistik ma'lumotlarni noto'g'ri talqin qilish va statistik ma'lumotlardan noto'g'ri foydalanilganda o'z izohini berishi mumkin.

## **1.2 Shaffoflik**

### **1.2.1 Statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish qoidalari va tartibining oshkoraligi**

#### **O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi**

“Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonunning 6-moddasiga binoan, rasmiy statistikaning asosiy prinsiplari tushunarlilik va shaffoflik. Statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish bo'yicha shartlar O'zbekiston Respublikasining statistikaga oid qonun hujjatlarida keltirilgan. Ushbu qonunchilik choralari veb-saytga joylashtirilgan va jamoatchilikni ular bilan tanishish imkoniyati mavjud. “Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonun va statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish va tarqatish muddatlari aniq ko'rsatilgan statistika dasturi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy veb-saytiga ([www.stat.uz](http://www.stat.uz)) joylashtirilgan. Qonun Oliy Majlis byulletenida, normativ-huquqiy hujjatlar bazasi (norma), shuningdek Adliya vazirligining [www.lex.uz](http://www.lex.uz) manzilida joylashgan ma'lumotlar bazasida ham mavjud. Statistik ma'lumotlarni shakllantirish uchun respondentlar tomonidan taqdim etiladigan statistika hisoboti shakllari Milliy statistika qo'mitasi rasmiy veb-saytida foydalanuvchilar uchun oldindan e'lon qilinadi.

### **1.2.2 Hukumatning statistik ma'lumotlar e'lon qilinishidan oldin ko'rishning ichki imkoniyati**

#### **O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi**

Hukumat Milliy statistika qo'mitasi tomonidan tayyorlangan statistik ma'lumotlarni ularni e'lon qilish vaqtidan oldin ko'rish imkoniyatiga ega emas. Statistik ma'lumotlarni tarqatishda statistika organlari mustaqildir. Davlat organlarining aralashuviga yo'l qo'yilmaydi (“Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonunning 13-moddasi). Faqat Qo'mita direktori, uning o'rinbosarlari va mas'ul xodimlar statistik ma'lumotlar e'lon qilinishidan oldin ularni ko'ra oladi.

### 1.2.3 Statistika ma'lumotlarining atributlari (belgilari)

#### **O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi**

Jamoatchilikka e'lon qilinayotgan bosma statistik nashrlar, axborotnomalar, ommaviy axborot vositalarida berilayotgan ma'lumotlarning Milliy statistika qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilganligi uning logotipi va izohlari orqali aniq belgilanadi.

### 1.2.4 Uslubiyatlar, ma'lumotlar manbasi va statistik usullardagi asosiy o'zgarishlar haqida oldindan xabardor qilish

#### **O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi**

Yangi uslubiyatga o'tishdan, mavjud uslubiyatlar va usullarga sezilarli o'zgartirishlar kiritishdan oldin Milliy statistika qo'mitasi jamoatchilikni oldindan xabardor qiladi. Milliy statistika qo'mitasi o'z rasmiy veb-saytida foydalanuvchilarni qanday o'zgarishlar kutayotganini tushuntiruvchi tegishli uslubiy ko'rsatmalarni joylashtiradi. Maqolalar, yangiliklar va matbuot anjumanlarida kutilayotgan o'zgarishlar jamoatchilikka yetkaziladi.

## 1.3. Axloq me'yorlari

### 1.3.1 Xodimlarning axloq me'yorlari bo'yicha ko'rsatmalar

#### **O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi**

Milliy statistika qo'mitasi xodimlari uchun Odob-axloq qoidalarini tasdiqlangan. Ular axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik prinsipiga rioya qilishlari, o'zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday ma'lumotlarni oshkor qilmasligi kerak. Ular lavozimga tayinlanayotganda ushbu majburiyatlar haqida tushuntirishlar beriladi. Milliy statistika qo'mitasi xodimi individual ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini olgan shartnoma tuzishi shart.

## 2. Uslubiyat

### 2.1 Konsepsiya va tushunchalar

#### 2.1.1 Konsepsiya va tushunchalar

Yalpi hududiy mahsulot (YAHM)ni hisoblash MHT-2008 qo'llanmasida tavsiya etilgan tushunchalar va ta'riflardan kelib chiqqan holda, yillik va choraklik davriylikda amalga oshiriladi.

YAHMni hisoblashning uslubiy asoslari bo'lib, "Yalpi hududiy mahsulotni hisoblash bo'yicha uslubiy nizom" (2023- yil 11- avgustdagi 58-son buyrug'i) hisoblanadi.

## **2.2 Statistik qamrov**

### **2.2.1 Statistik qamrov**

#### **2.2.1.1 Ma'lumotlarning statistik qamrovi**

YAHM hududning rivojlanishini umumlashtiruvchi ko'rsatkich hisoblanadi. YAHM iqtisodiy mohiyatiga ko'ra yalpi ichki mahsulotga teng ko'rsatkich hisoblanadi, ya'ni u ushbu hududning rezidentlari bo'lgan iqtisodiy birliklar tomonidan yakuniy foydalanish uchun ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymatini ifodalaydi.

#### **2.2.1.2 Statistik qamrovdan istisnalar**

Istisnalar yo'q.

#### **2.2.1.3 Aniqlanmagan faoliyat**

Iqtisodiyotning norasmiy sektori bo'yicha statistik ko'rsatkichlarni baholash noqonuniy faoliyat ko'rsatkichlarini qo'shmagan holda amalga oshiriladi.

## **2.3 Tasniflash/sectorlar bo'yicha taqsimlash**

### **2.3.1 Tasniflash/sectorlar bo'yicha taqsimlash**

YAHMni hisoblash respublika miqyosida O'zbekiston Respublikasining 14 ta ma'muriy-hududiy tuzilmasi (Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ta viloyat va Toshkent shahri) bo'yicha ishlab chiqarish usulida amalga oshiriladi.

## **2.4 Hisobga olish asoslari**

### **2.4.1 Baholash**

YAHM joriy va doimiy narxlarda aks ettiriladi.

### **2.4.2 Hisobga olish asosi**

-

### **2.4.3 Yalpi/sof ko'rsatkichlarni hisoblash tartib-taomillari**

YAHMni hisoblashning ishlab chiqarish usuli Milliy hisoblar tizimining ishlab chiqarish hisoblarini tuzish tamoyillariga asoslanadi va YAHMni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy narxlarda yalpi qo'shilgan qiymat va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali baholashni ko'zda tutadi.

## 3. Aniqlilik va ishonchlik

### 3.1 Birlamchi ma'lumotlar

#### 3.1.1 Birlamchi ma'lumotlarni yig'ish asoslari

YAHMni yillik baholash keng ko'lamdagi axborot bazasiga ega bo'lgan yillik statistika kuzatuvlari ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi.

YAHMni choraklik baholashlar hisobot davrida hududdagi joriy iqtisodiy vaziyatni dastlabki baholash va tavsiflash maqsadida ishlab chiqiladi, ular yillik baholashlar davomida batafsil ma'lumotlar asosida aniqlashtiriladigan yil davomidagi ko'rsatkichlar hisoblanadi.

#### 3.1.2 Birlamchi ma'lumotlarning ta'rifi, qamrovi, tasniflari, baholanishi va hisobga olish davri

Birlamchi ma'lumotlar YAHMning ta'riflariga, statistik qamroviga va tasnifiga hamda hisobga olish vaqti, hisobot davri va baholash tamoyillariga to'la mos keladi.

#### 3.1.3 Birlamchi ma'lumotlarning o'z vaqtida tayyor bo'lishi

Birlamchi ma'lumotlar Statistika dasturida belgilangan ma'lumotlarni taqdim etish muddatlarida o'z vaqtida taqdim etib boriladi.

### 3.2 Birlamchi ma'lumotlarni baholash

#### 3.2.1 Birlamchi ma'lumotlarni baholash

YAHM iqtisodiy mohiyatiga ko'ra yalpi ichki mahsulotga teng ko'rsatkich hisoblanadi, ya'ni u ushbu hududning rezidentlari bo'lgan iqtisodiy birliklar tomonidan yakuniy foydalanish uchun ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymatini ifodalaydi.

### 3.3 Statistik usullar

#### 3.3.1 Birlamchi ma'lumotlar bilan ishlashda statistik usullar

-

#### 3.3.2 Boshqa statistik jarayonlar

-

### 3.4 Ma'lumotlarni taqqoslash

#### 3.4.1 Oraliq natijalarni taqqoslash

Ayrim ma'lumotlar manbalari keskin farq qiluvchi qiymatlar bor yoki yo'qligi tekshirib boriladi. Keskin farq qiluvchi qiymatlar aniqlanganda milliy hisoblarni shakllantiruvchi xodimlar tegishli bo'linmalarga ma'lumotlarni tekshirish uchun murojaat qiladilar. Birlamchi ma'lumotlar tahlil qilinadi va dinamik mosligi tekshiriladi.

#### 3.4.2 Oraliq ma'lumotlarni baholash

-

#### 3.4.3 Yakuniy statistik ma'lumotlardagi tafovutlar va boshqa nomuvofiqliklarni o'rganish

-

### 3.5 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish tahlili

#### 3.5.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni o'rganish va tahlil qilish

YAHM ko'rsatkichlarini qayta ko'rib chiqish tartibi har yili tasdiqlanadigan Statistika dasturida aks etadi.

YAHMni yillik (dastlabki) baholash hisobot yili yakunlangandan so'ng bir oydan keyin taqdim etiladi.

YAHMni ushbu baholanishi hisobot yilidan keyin 11 oydan so'ng yillik statistik hisobot ma'lumotlari asosida qayta ishlanadi.

## 4. Amaliy yaroqlilik

### 4.1 Davriylik va o'z vaqtidaligi

#### 4.1.1 Davriylik

YAHM choraklik va yillik davriyliklarda shakllantiriladi.

#### 4.1.2 O'z vaqtidaligi

YAHMni choraklik dastlabki baholash hisobot choragidan bir oy keyin shakllantiriladi.

YAHMni choraklik dastlabki baholashni qayta baholash 16 oydan so'ng.

YAHMni yillik yakuniy baholash 11 oydan so'ng.

### 4.2 Qiyosiylik

#### 4.2.1 Ichki qiyosiylik

-

#### 4.2.2 Vaqt bo'yicha qiyosiylik

YAHMni 1995- yildan boshlab yillik hisob-kitoblari hamda 2000- yildan boshlab choraklik hisob-kitoblari mavjud. YAHM 1995- yildan so'mda ifodalangan.

2016- yil I-chorakdan boshlab YAHM IFUT-2 ga asoslangan holda baholanadi. IFUT-2 tarkibi bo'yicha yillik YAHM 2010- yildan boshlab qayta hisoblab chiqilgan.

2010- yildan boshlab ma'lumotlar qishloq xo'jaligini hisobga olish uslubiyatidagi o'zgarishlarni, shuningdek, uy-joy egalari tomonidan o'z iste'moli uchun ishlab chiqarilgan yashash xizmatlari, 2018- yildan bilvosita o'lchanadigan moliyaviy vositachilik xizmatlarini hisobga olgan holda qayta hisoblab chiqilgan.

#### 4.2.3 Sektorlar va sohalar o'rtasidagi qiyosiylik

-

### 4.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish

#### 4.3.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish jadvali

Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish davri oldindan belgilab boriladi va yildan yilga barqarorlashib boradi. YAHM ko'rsatkichlarini qayta ko'rib chiqish tartibi har yili tasdiqlanadigan Statistika dasturida aks etadi.

#### 4.3.2 Dastlabki va/yoki qayta ko'rib chiqilgan ma'lumotlarni aynan shu toifasi bo'yicha belgilash

Nashr qilinganda dastlabki ma'lumotlar belgilanadi va zaruriyatga qarab ularga izoh beriladi.

#### 4.3.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni o'rganish va tahlil qilish bo'yicha olingan natijalarni tarqatish

Qayta ko'rib chiqilgan (yakuniy) ma'lumotlar Milliy statistika qo'mitasi nashrlari va rasmiy veb-sayti orqali taqdim etiladi.

## 5. Qulayligi

### 5.1 Ma'lumotlar

#### 5.1.1 Statistik ma'lumotlarni taqdim etish

Choraklik va yillik ma'lumotlar foydalanuvchilarga "O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati", "O'zbekiston Respublikasining milliy hisoblari", "O'zbekiston Respublikasi yillik statistik to'plami", "O'zbekiston raqamlarda" va boshqa statistik to'plamlar, shu bilan birga, Milliy statistika qo'mitasining <https://stat.uz/> nomli rasmiy saytida press-relizlar va jadvallar ko'rinishida nashr qilish orqali taqdim etiladi.

YAHM ko'rsatkichlari tushunarli ko'rinishda grafiklar, jadvallar, qisqacha tahliliy sharhlar bilan nashr etiladi.

Nashrlarda ma'lumotlarni to'g'ri talqin qilish uchun asosiy ko'rsatkichlarga metodologik tushuntirishlar beriladi, bundan tashqari, veb-saytda statistik ko'rsatkichlarni shakllantirish va ularni hisoblash bo'yicha uslubiy nizomlar joylashtiriladi. Nashrlar va veb-saytlardagi ma'lumotlarni solishtirish uchun jadvallar va grafiklar shaklida bir nechta davrlar uchun indikatorlar keltiriladi.

Statistik ma'lumotlarni nashr etilishi muddatlari har yili tasdiqlanadigan Statistika dasturida aks ettiriladi.

## **5.1.2 Ma'lumotlarni tarqatish vositalari va shakllari**

### **5.1.2.1 Bosma shaklda – Yangi nashr**

Ma'lumotlar Milliy statistika qo'mitasining "O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati" (har chorakda), "O'zbekiston Respublikasining milliy hisoblari" (ikki yilda bir marta), "O'zbekiston Respublikasi yillik statistik to'plami" (ikki yilda bir marta), "O'zbekiston raqamlarda" (yilda bir marta) nashrlari orqali chop etilgan shaklda foydalanuvchilarga taqdim etib boriladi. Bundan tashqari, ma'lumotlar davlat boshqaruvi organlariga va boshqa foydalanuvchilarga ularning talablariga binoan kelishilgan jadvallar ko'rinishida taqdim etib boriladi.

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar jadvallar, grafiklar va diagrammalar shaklida qisqa tahliliy sharhlar bilan nashr etiladi.

### **5.1.2.2 Bosma shaklda – Oylik byulletenlar**

Mavjud emas.

### **5.1.2.3 Bosma shaklida – Choraklik byulletenlar**

Har chorakda "O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati" nashri taqdim etiladi, bundan tashqari statistik ma'lumotlar davlat boshqaruvi organlariga va boshqa foydalanuvchilarga ularning talablariga binoan kelishilgan jadvallar ko'rinishida taqdim etib boriladi.

### **5.1.2.4 Bosma shaklda – Yillik byulletenlar**

Yillik ma'lumotlar "O'zbekiston raqamlarda" (yilda bir marta) nashri orqali, bundan tashqari, davlat boshqaruvi organlariga va boshqa foydalanuvchilarga ularning talablariga binoan kelishilgan jadvallar ko'rinishida taqdim etib boriladi.

### **5.1.2.5 Bosma shaklda – Boshqalar**

Yillik ma'lumotlar "O'zbekiston Respublikasi yillik statistik to'plami" (ikki yilda bir marta), "O'zbekiston Respublikasining milliy hisoblari" (ikki yilda bir marta) nashrlari orqali, bundan tashqari, davlat boshqaruvi organlariga va boshqa foydalanuvchilarga ularning talablariga binoan kelishilgan jadvallar ko'rinishida taqdim etib boriladi.

#### 5.1.2.6 Elektron shaklda - Byulleten yoki nashrlar

Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy saytida statistik ma‘lumotlar - elektron jadvallar ko‘rinishidagi dinamik qatorlar, press-revizlar har chorakda joylashtiriladi va muntazam yangilanadi, shu bilan birga, “O‘zbekiston Respublikasining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari” taqdim etiladi. Shuningdek, ma‘lumotlar XVJning kengaytirilgan Ma‘lumotlarni tarqatishning umumiy tizimi (k-MTUT) doirasida O‘zbekistonning yig‘ma ma‘lumotlar milliy sahifasida joylashtiriladi.

#### 5.1.3. Ma‘lumotlarni e‘lon qilish jadvali

Rasmiy statistika taqvimini Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy saytida joylashtiriladi.

#### 5.1.4 Bir vaqtning o‘zida e‘lon qilish

-

#### 5.1.5 So‘rov bo‘yicha ma‘lumotlarni tarqatish

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni va boshqa me‘yoriy hujjatlarga muvofiq, statistik ma‘lumotlar foydalanuvchilarga ularning so‘rovlari bo‘yicha belgilangan tartibda taqdim etib boriladi. Statistik axborotlarni tarqatish yuridik yoki jismoniy shaxslarning yozma so‘rovlari bo‘yicha bosma yoki elektron jadval ko‘rinishida, statistik to‘plamlar, bulletinlar, tezkor axborot shaklida, shuningdek, tomonlar o‘rtasidagi axborot almashinuvi to‘g‘risidagi bitimlarga asosan amalga oshiriladi.

### 5.2 Metama‘lumotlar

#### 5.2.1 Konsepsiyalar, statistik qamrov, tasniflar, hisobga olish asoslari, ma‘lumotlar manbasi va statistik usullar to‘g‘risidagi hujjatlar va ma‘lumotlarni tarqatish

Ma‘lumotlar to‘g‘risidagi konsepsiyalar, statistik qamrovlar, tasniflar, hisoblash asoslari, ma‘lumotlar manbalari va statistik usullar tarqatiladigan statistik to‘plamlarda YAHM ko‘rsatkichlariga uslubiy tushuntirishlar ko‘rinishida o‘z aksini topadi.

### 5.3. Foydalanuvchilarga yordam ko‘rsatish

#### 5.3.1 Aloqa bog‘lash bo‘yicha ma‘lumotlarni tarqatish

Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy saytida.

## 9. Rejalar

### 9.1 Oxirgi

#### 9.1.1 Takomillashtirish rejasi – Oxirgi takomillashtirishlar

Uy-joy egalari tomonidan o'z iste'moli uchun ishlab chiqarilgan yashash xizmatlarini foydalanuvchilarnig xarajatlari usulida hisoblash, bilvosita o'lchanadigan moliyaviy vositachilik xizmatlari hajmini hisoblash statistik amaliyotga joriy etildi.

### 9.2 Umumiy

#### 9.2.1 Takomillashtirish rejasi – Qisqa muddatli

-

#### 9.2.2 Takomillashtirish rejasi – O'rta muddatli

-

### 9.3 Moliyaviy

#### 9.3.1 Takomillashtirish rejasi – texnik/moliyaviy ko'makka talab – Qisqa muddatli

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblashni takomillashtirish uchun texnik yordam ko'rsatish talab qilinadi.

#### 9.3.2 Takomillashtirish rejasi - texnik/moliyaviy ko'makka talab – O'rta muddatli

Kuzatilmaydigan iqtisodiyotni hisobga olishni takomillashtirish uchun texnik yordam ko'rsatish talab qilinadi.

## Aloqa bog'lash uchun shaxs (shaxslar):

F.I.O.:	Obidov Umarjon Shavkatovich
Lavozim:	Boshqarma boshlig'i
Bo'linma:	Makroiqtisodiy indikatorlar va milliy hisoblar boshqarmasi
Idora:	O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi
Manzil:	Mustaqillik shoh ko'chasi, 63-uy
Shahar/region:	Toshkent shahri
Mamlakat:	O'zbekiston Respublikasi
Pochta indeksi:	100170
Telefon: mamlakat kodi/shahar kodi/raqam	+ 998 71 203 80 00 (1060)
Faks: mamlakat kodi/shahar kodi/raqam	
Elektron manzil:	u.obidov@stat.uz